

# QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARIDAN SOLIQ UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Amanov Akram Mirzayevich*

**TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish"  
kafedrası professori**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarida xizmat qilayotgan jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlar, ularning samaradorligi tahlil qilingan. Amaldagi me‘yoriy hujjatlar o‘rganilib, qishloq xo‘jaligi korxonalarida xizmat qilayotgan jismoniy shaxslarning moddiy manfaatlarini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qishloq xo‘jaligi korxonalarini, fermer xo‘jaliklari, jismoniy shaxslar, soliqqa tortish tizimi, jami daromad tarkibi, soliq imtiyozlari, daromadlardan chegirmalar, mehnatga haq to‘lash tizimi, zayomlar, deklaratsiya.*

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda soliqlarning barqaror tushumini ta‘minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o‘sinhga ijobiy ta‘sir etuvchi o‘zaro uyg‘unlashgan soliq tizimini shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida qo‘yilgan.

Aholining yanada to‘liq va samarali bandligini ta‘minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash ahamiyatining o‘sganligi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma‘lumki, jismoniy shaxslar daromadlari ko‘payishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosatiga bevosita bog‘liqdir, ya‘ni jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish maqsadida soliq imtiyozlarini taqdim etishda davlat va fuqarolarning manfaatlarini inobatga olinadi hamda ularning maqbul holatini belgilash bo‘yicha soliq islohotlarining olib borilishi hozirda dolzarb masala hisoblanadi.

Xalqimiz, davlatimiz Yangi O‘zbekiston po‘ydevorini jadallik bilan bunyod etmoqda. Barcha soha va tarmoqlar Prezidentimiz ilgari surgan “Inson qadri uchun” tamoyili asosida tubdan isloh qilinmoqda.

Yangi O‘zbekiston, eng avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to‘liq qayta qurilmoqda hamda ijtimoiy bozor mexanizmlari tizimli tadbiriq etilmoqda. Xususan, keyingi yillarda respublikamiz soliq tizimiga raqamlashtirish jarayonining izchillik bilan joriy qilinishi soliq siyosatining samarali transformatsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda soliqlarning barqaror tushumini ta‘minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o‘sinhga ijobiy ta‘sir etuvchi o‘zaro uyg‘unlashgan soliq tizimini shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida qo‘yilgan.



Davlat soliq siyosatining transformatsiyalashuvi jarayonida jismoniy shaxslarning real daromadlarini tadqiq qilish va soliq undirish uchun raqamlashgan samarali soliq tizimini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aholining faravonlik darajasi ularning daromadlari bilan chambarchas bog'liq. Aholining daromadlaridan undiriladigan soliqlarning ahamiyatini ko'plab iqtisodchilar o'zlarining ilmiy qarashlarida bayon etib o'tilgan.

Jumladan, O.Abduraxmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mohiyatini ochishda unga quyidagicha ta'rif bergan: "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga ekvivalentsiz majburiy to'lovlardir".<sup>1</sup> Ushbu ta'rifdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, jismoniy shaxslarning daromadlari davlat byudjetiga tushuvchi majburiy to'lov, bu yerda soliqning majburiylik tamoyilida namoyon bo'lgan.

Shuningdek, A.Adizov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda quyidagicha "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar-davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va ko'rsatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdur" deb ta'rif bergan.<sup>2</sup> Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bu yerda nafaqat aholi shu jumladan davlatning ham o'z zimmasiga majburiyatlarni yuklashi ham ko'zda tutilgan hamda mazkur majburiyatlar yig'ilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar orqali moliyalashtirilishi ta'kidlangan.

Keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida soliqlar fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lovlar sifatida e'tirof etilgan.

Iqtisodiy qarashlardagi asosiy farq qiluvchi jihat shundan iboratki, ba'zi mualliflar soliqlarning muntazamligini ta'kidlashsa, boshqalari ularning ekvivalentsiz to'lov ekanligini qayd etishgan. Jismoniy shaxslarning daromad solig'iga ta'rif berishda soliq solinadigan daromad tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu yerda jismoniy shaxslarning daromadlari soliqqa tortilishi kerak bo'lib, jismoniy shaxslarga taqdim etilgan soliq imtiyozlarini ham inobatga olish zarur.

Hozirda aholining yanada to'liq va samarali bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash ahamiyatining o'sganligi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. "Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur. Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliq va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berish kerak".<sup>3</sup> Bu masalalarni hal qilish uchun respublikamizda soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tekis taqsimlash, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish, aholining real daromadlarini oshirishda soliq tizimining muhim elementi hisoblangan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Aholining yanada to'liq va samarali bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash ahamiyatining o'sganligi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, jismoniy shaxslar daromadlari ko'payishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosatiga bevosita bog'liqdir, ya'ni jismoniy shaxslarning daromadlarini

<sup>1</sup>Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari./ Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2005. B. - 52-53

<sup>2</sup>Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: DJQA, 2004. -21 b.

<sup>3</sup>Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: "O'zbekiston" NMIU, 2019.



oshirish maqsadida soliq imtiyozlarini taqdim etishda davlat va fuqarolarning manfaatlari inobatga olinadi hamda ularning maqbul holatini belgilash bo'yicha soliq islohotlarining olib borilishi hozirda dolzarb masala hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, dunyo miqyosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmining nazariy va metodologik asoslarini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi, ya'ni fiskal instrumentlarning soliqlar va soliqqa tortish usullari orqali jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq mexanizmlarini takomillashtirish, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq intizomiga rioya etilishi holatini baholovchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirish va uslubiyotini unifikatsiyalash, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni byudjetga undirish va byudjetdan qarzdorlik darajasini kamaytirishga oid metodologiyasini xalqaro reyting va indekslar talablari asosida takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Iqtisodiyoti jadal rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar daromadlarining ko'payishi bevosita davlat tomonidan olib borilayotgan soliq siyosati bilan uzviy bog'langan. Jismoniy shaxslar daromadlarini oshirish yo'llaridan biri soliq imtiyozlari va daromatlardan chegirmalarni taqdim etish hisoblanib, bunda davlat va jismoniy shaxslarning manfaatlari inobatga olinadi hamda ularning eng maqbul me'yorlari belgilanib, soliq islohotlarini olib borishda ta'sirchan vosita sifatida foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiyotdagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan hamda Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasidan farqli o'laroq, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini muhokama qilish jarayonida aholining katta qismi faol ishtirok etdi. Bu esa, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yanada xalqchil bo'lishini ta'minlaydi.

Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlar uchun dasturilamal vazifasini bajarib beradi. Unda mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Buning uchun bir nechta zarur maqsadlar nazarda tutilgan, ya'ni 21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish.<sup>4</sup>

Mamlakat aholisining qariyb 16,4 millioni (jami aholining 49,4 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Mamlakatda tug'ilish darajasi yuqori (23,3 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. 25 yoshgacha bo'lgan odamlar aholining 45,5 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 55 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Qishloq hududlarida davlat xizmatlari, shuningdek transport va axborot-kommunikatsiya aloqalari darajasi pastligicha qolmoqda. Hududiy ehtiyojlarni batafsil baholashga asoslangan va raqobat afzalliklarini hisobga olgan holda kompleks strategiya va dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Agrar sektorda amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari aksariyat hollarda to'g'ridan-to'g'ri fermerlar va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga yo'naltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinganida, qishloq hududlarining iqtisodiy taraqqiy etishi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqligi va shundagina

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillardagi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmonidan olingan.



muvaffaqiyatga erishilishi, mahallalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan subsidiyalarga asoslangan islohotlar samarasiz ekanligi kuzatildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligining muvofiqlashtiruvchi ostida amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish dasturlari, asosan, hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, yirik shahar markazlari foydasi uchun, qishloq aholisining kichik bir qismi - fermerlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan boshqa tadbirkorlar sektori tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, biroq qishloq mahallalari chetda qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida xizmat qilayotgan jismoniy shaxslarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimidagi islohotlarning samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflarni taqdim qilamiz:

1) Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlaridan aholining ayrim toifasiga (masalan, qishloq xo'jaligi korxonalarida ishchi xizmatchilariga, oilasini moddiy jihatdan yolg'iz ta'minlayotgan erkak yoki ayollarga) "Inson qadri uchun" tamoyili amaliyotda ishlashi uchun imtiyozli chegirmalar ishlab chiqish kerak. Bu jarayon ayrim toifadagi aholini ijtimoiy nuqtai-nazardan to'liq himoyalaydi deb hisoblaymiz;

2) Soliq kodeksining 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining [to'rtinchi](#) va [beshinchi xatboshilarida](#) ko'rsatilgan, ya'ni bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan moddiy yordam summalarini foyda solig'i bo'yicha soliq bazasini aniqlashda soliq kodeksining 317-moddasida keltirilgan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar tarkibidan chiqarish lozim. Bu holat yuridik shaxslarning o'z xodimlarini yanada rag'batlantirishga turtki beradi;

3) Deklaratsiya topshiruvchi jismoniy shaxslarni rag'batlantirish maqsadida amaldagi soliq 12 foizli stavka o'rniga imtiyozli soliqqa tortish stavkasi joriy qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning fikrimizcha, asosiy ish joyidan tashqari boshqa joydan olgan daromadlariga, mulkiy daromadlariga 10 foiz miqdorida soliq joriy qilinishi lozim;

4) Amaldagi soliq kodeksida yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga maqsadli ishlatish tarzida pul mablag'lari ko'rinishida zayomlar berish to'g'risidagi qoidalar belgilanmagan. Yuridik shaxs tomonidan taqdim etiladigan hamda jismoniy shaxslarning moddiy manfaatdorligiga xizmat qiladigan pul mablag'lari ko'rinishidagi zayomlarni berish qoidalarini soliq kodeksiga kiritish zarur;

5) 2023 yil 1 apreldan 2024 yil 1 mayga qadar eksperiment tariqasida ishlab chiqilgan paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga ular ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qaytarib berish tartibini kamida 5 yil muddatga belgilash o'z samarasini berishi mumkin.



Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha berilgan tavsiya va takliflar soliqqa tortish jarayonini takomillashtirishga hamda soliq siyosati samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Qishloq xo'jaligida aholi bandligini oshirish va yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2023 yil 23 fevral, PQ-69-son.
2. Amanov A.M. Opredelenie nalogovoy zadoljennosti //Vestnik sovremennoy nauki. Nauchno-teoreticheskiy jurnal. №4. 2016. Chast 1. Str. 77-79
3. Amanov A.M. Prioritetnye napravleniya sovershenstvovaniya nalogovoy sistemy Respubliki Uzbekistan // EKONOMIKA I BIZNES: teoriya i praktika jurnal. №5. 2017. Str. 17-20.
4. Amanov A.M. Selskoe khozyaystvo respubliki uzbekistan v usloviyax sifrovizatsii ekonomiki // «Internauka»: nauchnyy jurnal – № 19(195). Chast 4. Moskva, Izd. «Internauka», 2021. Str. 16-19.

